O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

O‘zbekiston Respublikasi
Yoshlar siyosati va sport vazirligi

# 61010300 - Sport faoliyati (faoliyat turlari bo‘yicha) bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talablari

Toshkent-2023

ЎзР ОЎМТВ
Буйруқ № 344
«01» 08 2023 йил

**ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:**

Oliy sport mahorati instituti.

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil «07» 08 dagi 344 - sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

**JORIY ETILGAN:**

Oliy sport mahorati instituti.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy malaka ramkasiga va Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining kasbiy standartlariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga hamda O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligiga tegishlidir.

# MUNDARIJA


1. ***61010300 - Sport faoliyati (faoliyat turlari bo‘yicha)*** bakalavriat ta’lim yo‘nalishining umumiy tavsifi .......... 4

1.1. **Qo‘llanish sohasi** .......... 4

1.1.1. ***61010300 - Sport faoliyati (faoliyat turlari bo‘yicha)*** ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talabining qo‘llanilishi.......... 4

1.1.2. **Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari**.......... 4

1.2. ***61010300 - Sport faoliyati (faoliyat turlari bo‘yicha)*** ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.......... 5

1.2.1. ***61010300 - Sport faoliyati (faoliyat turlari bo‘yicha)*** ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari.......... 5

1.2.2. ***61010300 - Sport faoliyati (faoliyat turlari bo‘yicha)*** ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob’ektlari.......... 5

1.2.3. ***61010300 - Sport faoliyati (faoliyat turlari bo‘yicha)*** ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.......... 6

1.2.4. ***61010300 - Sport faoliyati (faoliyat turlari bo‘yicha)*** ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.......... 6

2. **61010300 - Sport faoliyati (faoliyat turlari bo‘yicha)** ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar.......... 12

2.1. **Umumiy kompetensiyalar**.......... 12

2.2. **Kasbiy kompetensiyalar**.......... 13

2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta’minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar .......... 15

2.3.1. **Kvalifikatsiya** .......... 16

2.3.2 **61010300 – Sport faoliyati (faoliyat turlari bo‘yicha)** ta’lim yo‘nalishi uchun ajratilgan o‘quv fanlari, bloklar bo‘yicha soatlar va kreditlar .......... 16

2.3.3. **61010300 – Sport faoliyati (faoliyat turlari bo‘yicha)** bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim dasturining tuzilishi .......... 17

**Bibliografik ma’lumotlar**.......... 18

**Kelishuv varag‘i** .......... 19

## 1. *61010300 - Sport faoliyati (faoliyat turlari bo‘yicha)* bakalavriat ta’lim yo‘nalishining tavsifi

***61010300 - Sport faoliyati (faoliyat turlari bo‘yicha)*** ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi shaklda amalga oshiriladi. Ta’lim shakllari bo‘yicha o‘qitish reyting (baholash) tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta’limda bakalavriat dasturining me’yoriy muddati 3 yil.

Mazkur, ***61010300 - Sport faoliyati (faoliyat turlari bo‘yicha)*** bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talablari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyundagi “Oliy sport mahorati instituti faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida“gi PQ–269-son qarori bilan tasdiqlangan “Oliy sport mahorati instituti faoliyatini tashkil etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar dasturi”ning 1-bandi talablariga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining kasbiy standartlariga muvofiq, Oliy sport mahorati instituti uchun mo‘ljallanib ishlab chiqildi.

### 1.1. Qo‘llanish sohasi

**1.1.1. *61010300 - Sport faoliyati (faoliyat turlari bo‘yicha)* malaka talabining qo‘llanilishi.**

Malaka talabi ***61010300 - Sport faoliyati (faoliyat turlari bo‘yicha)*** ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlovchi Oliy sport mahorati instituti uchun talablar majmuini ifodalaydi.

**1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:**

- mazkur ta’lim yo‘nalish bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas’ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan Oliy sport mahorati institutining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o‘qituvchilari;
- ta’lim yo‘nalishining o‘quv rejasi va fan dasturlarini o‘zlashtiruvchi Oliy sport mahorati instituti talabalari;
- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;
- ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;
- oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi sport tashkilotlari va boshqa korxonalar;

- Oliy sport mahorati institutiga o'qishga kirayotgan abiturientlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

**1.2.** ***61010300 - Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha)*** **ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.**

**1.2.1.** ***61010300 - Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha)*** **ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari:**

***61010300 - Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha)*** ta'lim yo'nalishi - Xizmat ko'rsatish sohasiga oid yo'nalish bo'lib,, jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarida mehnat faoliyatini tashkil etish, sport turlari bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazish, maktabgacha ta'lim va tarbiya, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim, professional ta'lim, oliy ta'lim va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlarida ta'lim yo'nalishiga jismoniy tarbiya darslarini tashkil etish va o'tkazish, sport turlariga oid harakatlarga o'rgatish, jismoniy tarbiya va sport sohasiga oid vositalar, tamoyillarni qo'llash, harakatlarga o'rgatish, yosh davrlariga nisbatan vosita va uslublarni tanlash, jismoniy yuklamalarni miqdor va sifat jihatdan boshqarish va individuallashtirish, jismoniy mashg'ulotlarni rejalashtirish, nazorat va tahlil qilib borish, sport faoliyatining asosiy tamonlarini boshqarish, sport sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish bilan bog'liq kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

Yo'nalish bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat sohalarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin.

**1.2.2.** ***61010300 - Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha)*** **ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari:**

- maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlarida (sport maktablari, ixtisoslashtirilgan olimpiya zaxiralari sport maktablarda);
- olimpiya va milliy sport turlariga ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarida;
- sport ta'lim tashkilotlarida;
- sport klublarida;
- sport jamoat tashkilotlarida;
- maktabgacha ta'lim va tarbiya, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim, professional ta'lim tashkilotlarida;
- sport-sog'lomlashtirish faoliyatiga oid bo'lgan xizmatlarda va jismoniy tarbiya va sportga oid bo'lgan boshqa xizmatlar ko'rsatuvchi ishlab chiqarish va tadbirkorlik tashkilotlarda.

- turli yoshdagi aholi guruhlari o‘rtasida jismoniy tarbiya va sport faoliyatini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat tashkilotlari (sport klubalar va markazlar), sog‘lomlashtirish pansionatlari va boshqalarda;

- davlat boshqaruvi organlari, maktabgacha ta’lim va tarbiya, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, professional ta’limlari hamda maktabdan tashqari ta’limning davlat va nodavlat muassasalarida kompleks masalalarni yechish kompleks masalalarni yechish.

Yo‘nalish bo‘yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat ob’ektlarida qo‘shimcha va o‘zgarishlar bo‘lishi mumkin.

***61010300 - Sport faoliyati (faoliyat turlari bo‘yicha)*** ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavriat bitiruvchilari fan sohasidagi bakalavriat ta’lim yo‘nalishini tamomlagandan so‘ng, maktabgacha ta’lim va tarbiya, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim, professional ta’lim va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya fanini o‘qitishda va sport mashg‘ulotlarini olib borishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda mashg‘ulotlar o‘tkazish, tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida, sport tayyorgarligini amalga oshiruvchi jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarda kompleks masalalarni yechish huquqiga ega bo‘ladi.

**1.2.3. *61010300 - Sport faoliyati (faoliyat turlari bo‘yicha)* ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:**

- tenerlik (seleksioner-ternerlik);
- pedagogik (maktabgacha ta’lim va tarbiya, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim, professional ta’lim hamda maktabdan tashqari ta’lim tizimlarida);
- tashkiliy-boshqaruv va xizmat ko‘rsatish;
- ilmiy- tadqiqot;
- sog‘lomlashtirish va tiklash;
- sport hakamligi.

Yo‘nalish bo‘yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat turlarida qo‘shimcha va o‘zgarishlar bo‘lishi mumkin.

Ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha tayyorlangan bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining muayyan turlari ta’lim jarayonining manfaatdor ishtirokchilari bilan hamkorlikda Oliy sport mahorati instituti tomonidan aniqlanadi.

**1.2.4. *61010300 - Sport faoliyati (faoliyat turlari bo‘yicha)* ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.**

***61010300 - Sport faoliyati (faoliyat turlari bo‘yicha)*** ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy

faoliyatlarining sohalari, ob'ektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bolishi lozim:

- maktabgacha ta'lim va tarbiya, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim, professional ta'lim va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya darslari va sport mashg'ulotlarini tashkil etish va olib borish;

- sport maktablari, sport turlariga ixtisoslashgan sport maktablari, sport turlari bo'yicha ixtisoslashgan bolalar va o'smirlar sport maktablari, bolalar va o'smirlar sport maktablaridagi sport mashg'ulotlarini tashkil etish va olib borish;

- sport jamoalari, sport klublarida sport mashg'ulotlarini olib borish va sport musobaqalarini tashkil etish;

- ishlab chiqarish korxonalarida jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini tashkil etish;

- ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli shaxslar egallashi lozim bo'lgan lavozimlarda mustaqil ishlashga;

- tegishli bakalavriat yo'nalishi doirasida tanlangan mutaxassislik bo'yicha magistraturada oliy ta'limni davom ettirishga;

- kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimida qo'shimcha kasb ta'limi olish uchun tayyorlanadilar.

**Trenerlik (seleksioner-ternerlik) faoliyatida:**

- jismoniy tarbiya va sport sohasidagi kasbiy bilimlarni qo'llash;

- tanlangan sport turi bilan sportchilarning shug'ullanish jarayonida sportchi shaxsini shakllantirishda, umuminsoniy qadriyatlar, sog'lom turmush tarzi, sportda raqobatchilikning adolatli axloqiy tamoyillaridan foydalangan holda sport tayyorgarligi mashg'ulotlarini olib borish;

- tanlangan sport turining tibbiy-biologik va psixologik asoslarini hamda mashg'ulot texnologiyasini, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi faoliyatning sanitariya-gigienik asoslarini tushunish;

- tanlangan sport turida individning antropometrik, jismoniy va psixologik hususiyatlarini aniqlash bo'yicha zamonaviy metodikalarni qo'llagan holda sport orientatsiyasi va saralashi tizimini amalga oshira olish;

- bolalar va yoshlarda tanlangan sport turi bilan shug'ullanish motivatsiyasini shakllantira olish, shug'ullanuvchilarda halol sport raqobatining ahloqiy tamoyillarini tarbiyalay olish;

- sportchiga (sportchilarga) sport natijasiga erishish uchun tanlangan sport turlari texnikasi va usullarini o'rgatish;

- mashg'ulotlarni olib borishda havfsizlik texnikasini ta'minlay olish;

- tanlangan sport turi uchun dolzarb hisoblangan pedagogik nazorat va korreksiya texnologiyalari, inson jismoniy holatini boshqarish vositalari va usullarini qo'llay olish;

- sport tibbiyoti asoslari, tibbiy nazorat va birinchi yordam usullarini bilishi va amalda birinchi yordam ko‘rsata olish;

- tanlangan sport turlari bo‘yicha qo‘yilgan vazifalarga mos keladigan mashg‘ulot vositalari va usullarini tanlash, sport natijasiga erishish maqsadida shaxsning imkoniyatlariga mos keladigan yuklamalar miqdorini aniqlash;

- tanlangan sport turlari bo‘yicha sport mashg‘ulotlari jaranida shug‘ullanuvchilarning funksional holatini, ular tomonidan erishilgan harakat texnikasi darajasini va ish qobiliyatini nazorat qilish va tegishli tuzatishlar kiritish asosida sport mashg‘uloti jarayonini, shu jumladan musobaqalar faoliyatini boshqarish ishlarini amalga oshirish;

- tanlangan sport turlari bo‘yicha musobaqalar faoliyatini boshqarish jarayonida sportchilarni muayyan saralash va tanlash (seleksiya qilish) ishlarini amalga oshirish;

- tanlangan sport turlari bo‘yicha sport tayyorgarligi mashg‘ulotlarini pedagogik-psixologik va tibbiy-biologik ko‘zatuvini amalga oshirishni ta’minlash;

- tanlangan sport turlari bo‘yicha seleksiya ishlarini olib borish va iqtidorli sportchilarni saralash.

- rejaviy va hisobot hujjatlarini tuzish, ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarini hamda sport musobaqalarini tashkil qila olish ***qobiliyatlariga ega bo‘lishi lozim.***

**Maktabgacha ta’lim va tarbiya, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim, professional ta’lim hamda maktabdan tashqari ta’lim tizimlarida pedagogik faoliyatida:**

- maktabgacha ta’lim va tarbiya, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim, professional ta’lim hamda maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlarida mutaxassislikka oid tayyorgarlik yo‘nalishida nazarda tutilgan o‘quv fanlar bo‘yicha nazariy va amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish;

- maktabgacha ta’lim va tarbiya, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim, professional ta’lim hamda maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari jarayonida o‘quvchilarning shaxsiyatining umumiy madaniyatini, ijtimoiylashuviga, shuningdek jismoniy tarbiya vositalari yordamida umuminsoniy qadriyatlar va sog‘lom turmush tarzi shakllantirishga ko‘maklashish;

- jismoniy tarbiya fanini o‘qitish va sport mashg‘ulotlarini olib borish uslubiyotini egallash;

- jismoniy tarbiya fanini o‘qitish va sport mashg‘ulotlarini olib borishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanish;

- jismoniy tarbiya fanini o‘qitish va sport mashg‘ulotlarini olib borish uchun zarur bo‘lgan o‘quv-uslubiy hujjatlarni tuzish, tayyorlash va rasmiylashtirish;

- jismoniy tarbiya fanini o‘qitish va sport mashg‘ulotlarini olib borish uchun o‘qitishning texnik vositalaridan foydalanish;

- mustaqil ta'lim va ijodiy izlanish natijasida o'qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi uslublar, vositalar va shakllar tizimida o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borish;

- maktabgacha ta'lim va tarbiya, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim, professional ta'lim hamda maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlarida o'quvchilarning jismoniy va funksional holatini baholash natijalarini hisobga olgan holda o'quv rejalari doirasidagi mashg'ulotlar mazmunini aniqlash;

- o'quvchilarning davlat ta'lim standartlari talablariga javob beradigan tayyorgarligi darajasini ta'minlash, zarur bilimlar, harakat ko'nikmalari va ko'nikmalarini, shuningdek, ularning sog'lig'i va mehnatga layohatini saqlash va mustahkamlash uchun yetarli darajada jismoniy tayyorgarligini ta'minlash;

- uslubiy komissiyalar faoliyatida va uslubiy ishning boshqa shakllarida ishtirok etish;

- o'qituvchilar, ota-onalar (ularning o'rnini bosuvchi shaxslar) bilan hamkorlik qilish;

- o'quv jarayonini tashkil etish va o'tkazilishiga ko'maklashish, tadqiqotlarda ishtirok etish, ma'lumotlarni to'plash, umumlashtirish va tahlil etish;

- ta'lim-tarbiya jarayoni tarkibiy qismlari (maqsad, natija, mazmun, shakl, metod va vosita)ning o'zaro aloqadorligi va umumiyligini hisobga olish;

- ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning asosiy va yordamchi shakllaridan unumli foydalanish; o'quvchilarning bo'sh vaqtini samarali tashkil etish va o'tkazish;

- ta'lim-tarbiyaning xilma-xil usullarini, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni oqilona tanlay olish, ijodiy yondashuv asosida metod va texnologiyalarning milliy mentalitetga mosligini ta'minlash.

- o'qitilayotgan fanlar bo'yicha dars mashg'ulotlarini o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv-metodik hujjatlarni shakllantirish, tuzish va ularni tadbiq etish;

- mustaqil ta'lim va ijodiy qidiruv natijasida o'qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi metodlar, vositalar va shakllar jabhalarida o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borish ***qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim.***

**Tashkiliy-boshqaruv xizmat ko'rsatish faoliyatida:**

- fuqarolik jamiyatining dolzarb masalalarini bilishi, O'zbekiston rivojlantirish strategiyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo'lishi;

- dunyoqarash bilan bog'liq falsafiy bilimlarga tizimli ega bo'lishi, mustaqil tahlil qila olishi, kasbiy faoliyatida ularni hisobga ola bilishi;

- Vatan tarixini bilishi, ma'naviy milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o'z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslay bilishi, milliy istiqlol g'oyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo'lishi;

- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid xujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda xayotda va o'z kasb faoliyatida foydalana bilishi;

- axborot yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, o'z kasbiy faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;

- tegishli bakalavriat yo'nalishi bo'yicha raqobotbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi;

- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;

- sohaga oid innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq qilishni tashkil etish;

- jismoniy tarbiya va sport sohasida faoliyat yurittuvchi sport tashkililotlarni boshqarish hamda xizmat ko'rsatuvchi nodavlat korxonalarni tashkil etish va boshqarish;

- sport tashkilotlari va korxonalar faoliyatini strategik rivojlantirishda zamonaviy iqtisodiy bilimlarni qo'llash orqali boshqarish;

- sport tashkilotlari, korxonalari va ularning aloxida tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, ularning mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish;

- birlamchi ishlab chiqaruvchi yoki tadbirkorlik bo'g'in ishini tashkil qilish va uni boshqarish;

- bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishlarning natijalarini baholash;

- kasbga oid muammolar yechimlarini amaliyotga tadbiq etish, ishlab chiqarish jarayonida yoki tadbirkorlik sifatni boshqarish;

- sport tashkilotlari yoki korxonalarning tashkiliy-boshqaruv faoliyatida qabul qilinadigan qarorlarni ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik mezonlari asosida qarorlarni ishlab chiqishda yoki muqobil variantini qabul qilishda ishtirok etish;

- zamonaviy raqamli axborot texnologiyalardan boshqaruvda foydalanish, boshqaruv faoliyati jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;

- atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida amalga oshiriladigan faoliyat jarayonlarini nazorat qilish;

- tashkilot va korkona faoliyati jarayonlarini va resurslaridan foydalanishni rejalashtirish, favqulodda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni tahlil qilish.

- sport tayyorgarligini amalga oshiruvchi tashkilotlar hamda xizmat ko'rsatish va tadbirkorlik korxonalariga investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini qo'llash, investiyion loyihalarni ishlab chiqish va boshqarish.

- pullik sport-sog'lomlarshtirish xizmatlarini tashkil etish va amalga oshirish;

- ixtisoslikka mos sport xizmatlarni ko'rsatish ***qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.***

**Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:**

Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi dolzarb muammolarni aniqlash.

Jismoniy tarbiya va sportga oid ilmiy tekshirishlar bo'yicha namunaviy usullarda ilmiy-amaliy tadqiqotlar o'tkazish;

respublika va xorijda chop etilgan jismoniy tarbiya va sportga oid ilmiy-texnik axborotlarning ilmiy manbalarini o'rganish; ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda bevosita ishtirok etish;

aprobatsiyadan o'tgan usullarni qo'llagan holda jismoniy tarbiya va sport sohasidagi faoliyatning turli jihatlarining samaradorligini aniqlash bo'yicha ilmiy tadqiqot o'tkazish;

matematik-statistika usullari, axborot texnologiyalari yordamida tadqiqot natijalarini qayta ishlash usullaridan foydalana olish, umumlashtirish va xulosalarni shakllantira olish.

mavzu (topshiriq) bo'yicha ilmiy-texnikaviy ma'lumotlarni yig'ish, ishlov berish, tahlil qilish va olingan malumotlarni tizimlashtirishda ishtirok etish;

ilmiy-tadqiqot natijalarini va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishda qatnashish;

internet tarmog'ida sohaga tegishli eng yangi ilmiy, texnologik yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'naltirilgan holda qidirish va topish;

ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarish jamoasi tarkibida (tayyorlanganlik profiliga mos ravishda) kasbiy faoliyat masalalarini yechish qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.

**Sog'lomlashtirish va tiklash faoliyatida:**

- sog'lom turmush tarzi omili sifatida aholini ko'ngilochar tadbirlarga jalb qilish;

- salomatlikni tiklash va mustahkamlash, sog'lom turmush tarzini joriy yetish vositasi sifatida jismoniy madaniyatdan ongli ravishda foydalanishga ko'maklashish;

- aholining ehtiyojlariga muvofiq mintaqaviy va mahalliy darajada aholining mazmunlili dam olishlarini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha dasturlar, mashg'ulotlar rejimlarini amalga oshirish;

- jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanuvchilarni ommaviy sport va jismoniy tarbiya hamda mazmunli dam olish tadbirlarida ishtirok etishga tayyorlash;

- ommaviy sport va sog'lomlashtirish-jismoniy tarbiya tadbirlarini tashkil etish va o'tkazish;

- mashg'ulotlar jarayonida shug'ullaniuvchilarning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilishni, mehnatni muhofaza qilish qoidalari va normalariga, xavfsizlik choralariga rioya qilishni ta'minlash;

**Sport hakamligi faoliyatida:**

- tanlangan sport turlari bo'yicha turli darajadagi musobaqalarni tashkil etish va o'tkazish;

- sport musobaqalari tizimini boshqarish qobiliyatini, turli sport turlari bo'yicha hakamlik ko'nikmalari va malakalarini shakllantirish;

- sport musobaqalarida hakamlikni tashkil etish va o'tkazish hamda hakamlik texnikalari va usullarini o'rgatish;

- sport musobaqalarida hakamlik qilish va boshqarish ko'nikmalari va malakalariga ega bo'lish;

- hakamlik natijalarini buzilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan xatolarni istisno qilib, hakamlik davomida yuzaga keladigan muammolarni xolisona va o'z vaqtida professonal va xolis hal qilish ***malaka va ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.***

**2. *61010300 - Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar**

**2.1. Umumiy kompetensiyalar:**

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;

- mantiqiy fikrlashlarni rivojlantirish, to'g'ri xulosa chiqarish, mustaqil tahlil qila olishi, kasbiy faoliyatida ularni hisobga ola bilishi;

- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid xujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda xayotda va o'z kasb faoliyatida foydalana bilish;

- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

- mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha o'zgarishlarga daxldorlik tuyg'usi bilan yashash kabi fazilatlarni shakllantirish, mustaqillik yillarida, xususan, milliy tiklanishdan milliy yuksalishga o'tish davrida davlat boshqaruvi,

ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy hamda boshqa sohalardagi islohotlar, O'zbekistonning faol tashqi siyosati bilan bog'liq tarixiy jarayonlar, voqea va hodisalarni milliy yuksalish davrida mamlakatimizda amalga oshrilgan tub islohotlarning mazmun-mohiyati haqida bilimlarga ega bo'lish;

- jamiyat rivojlanishida jismoniy tarbiya va sportni hamda olimpiya harakatini o'rni, mamalakatni yanada demokratlashtirish hamda jahon hamjamiyatidagi nufuzini oshirishda jismoniy tarbiya va sport sohasini qo'shayotgan hissasini o'rganishtalabalarga jamiyat rivojlanishida jismoniy tarbiya va sportni hamda olimpiya harakatini o'rni, Olimpiya o'yinlari tarixi, zamonaviy olimpiya o'yinlar va Xalqaro olimpiya qo'mitasi va uning faoliyati haqidagi bilimlarni shakllanttirish;

- falsafa ta'limining dunyoqarashni shakllantirishdagi o'rnini, falsafaning mohiyati, nazariy va me'yoriy asoslari, ob'ektlari va sub'ektlari, tamoyillari, funksiyalari va usullari, sportda faoliyatini tizimli tahlil qilish, sportchilarning axloqiy va estetik madaniyatini, sport tafakkurini rivojlantirish, diniy madaniy an'analarda oila va farzand tarbiyasiga oid g'oyalarning ahamiyatini bilish;

- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zarurati to'g'risida tassavvurga ega bo'lish.

**2.2. Kasbiy kompetensiyalar:**

- jismoniy tarbiya va sport sohasidagi kasbiy bilimlarni qo'llash;
- axborot yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, o'z kasb faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;
- tegishli bakalavriat yo'nalishi bo'yicha raqobotbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;
- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida ilmiy tassavvur hamda e'tiqodga, o'zini jismoniy chiniqtirish o'quv va ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim;
- ta'lim yo'nalishiga muvofiq kasb faoliyati sohalarida erishilgan asosiy yutuqlar, muammolar va ularning rivojlanish istiqbollari haqida tasavvur hosil qilishi;
- sport sohasidagi munosabatlarni huquqiy tartibga solishning nazariy va amaliy jihatlariga oid tizimli bilim va professional malakalarni hosil qilish;
- sport pedagogikasining nazariy asoslari, trenerning kasbiy-pedagogik faoliyati mazmuni, sport mashg'ulotlarini o'tkazish usullari, shakl va vositalaridan

foydalanish hamda trenerning pedagogik mahorati va uning tarbiyachi sifatidagi faoliyatini, jismoniy tarbiya va sport ta'limida pedagogik texnologiyalar hamda innovatsiyalardan foydalanish malakalariga ega bo'lish;

- sport psixologiyasi fanining predmeti, maqsadi va vazifalari haqidagi bilimlarni shakllantirish, sportchilarni psixologik tayyorlash bo'yicha bilimlarini takomillashtirish, sport psixologiyasining zamonaviy tushunchalari bilan tanishtirish, sportchilarni texnik va taktik jihatdan tayyorlashga oid muammolarni aniqlash, sportchi irodasini chiniqtirish, sportchi shaxsini psixologik jihatdan tahlil etish, nazorat qilish va boshqarish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish;

- sportchilar organizmining fiziologik va morfologik xusuiyatlari, jismoniy faoliyat paytida organizmda sodir bo'ladigan fiziologik jarayonlarning asoslarini, jismoniy sifatlarni rivojlanishi mexanizmlarini, organizmni jismoniy yuklamalarga moslashish mexanizmlarini, sportchilar organizmi holatini nazorat qilish uslubiyati asoslarini egallash;

- sport nazariyasi fanining boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi, sport faoliyatining nazariy-usuliy qoidalarini, sportchilarni tayyorlash asoslari, sportdagi yuklama va uning sportchi organizmiga ta'siri, sportchilarni tayyorlashda nazorat turlarini qo'llash hamda sportda ishlatiladigan doping va unga qarshi kurashishga oid bilimlarni shakllantirish;

- sport hakamligi asoslari faning maqsadi, vazifalari, nazariy asoslari va uslublari, ob'ekti va predmeti haqida bilimlarni o'zlashtirish, hakamlik qoidalarini o'rganish, sport musobaqalarini tashkil qilish va o'tkazish hamda musobaqalarga rahbarlik qilish amaliyotida va jamoat ishlarida kerakli bo'lgan bilimi, ko'nikmalarni va sport turlari bo'yicha hakamlik mahorati va malakalarini shakllantirish;

- tanlangan sport turlari bo'yichanazariy asoslari va uslublari, sportchining yosh va jinsiy xususiyatlarni va faoliyatini belgilaydigan omillarni hisobga olgan holda harakat texnikasini o'rgatish qobiliyatlarini rivojlantirish vositalari va usullarni tanlash, sport mashg'ulotlar o'tkazishga jalb etilganlarni tashkil etish, musobaqalarni tashkil etish va o'tkazish hujjatlar tuzish, tanlangan sport turlaridan sport mashg'ulotlarning istiqbolli va tezkor rejalari va dasturlarini ishlab chiqish, tanlangan sport turida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, sportchilarning holatini pedagogik nazorat qilish usullaridan foydalanish qobiliyatlarini shakllantirish.

- bolalar va o'smirlar sportining nazariy asoslarini, trenerning professional faoliyatidagi yoshlar bilan ishlash faoliyati mazmunini, bolalar va o'smirlar sport mashg'ulotlarini o'tkazishda metod, shakl va vositalaridan foydalanish hamda sportchi yosh xususiyatlarining shakllanishi, sport mashg'ulotlari jarayonida

organizm funktsiyalarini hisobga olgan holda tashkil etish malakasini shakllantirish;

- sport tibbiyoti sohasida tizimlashtirilgan bilimlarni shakllantirish, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanuvchi shaxslarni nazorat qilish va kuzatishning zamonaviy usullari bilan tanishish, salomatlikni saqlash va mustahkamlash qonuniyatlari to‘g‘risida ilmiy bilimlarni egallash, jismoniy tarbiya o‘qituvchisi va sport murabbiyi ishida zarur bo‘lgan tibbiy ko‘nikmalarni o‘zlashtirish va shakllantirish;

